TOSHKENT VILOYATI TOSHKENT TUMANI HOKIMINING

QARORI

2024-yil 27-iyul | 217-10-212-Q/24 | Toshkent tuman hokimligi

Toshkent viloyati hokimining 2024 yil 15 iyuldagi “Toshkent tumani hududidagi bo‘sh turgan yer maydonini davlat mulki sifatida davlat ro‘yxatidan o‘tkazish to‘g‘risida”gi 509-10-0-Q/24-sonli qarori haqida

Toshkent viloyati hokimining 2024 yil 15 iyuldagi “Toshkent tumani hududidagi bo‘sh turgan yer maydonini davlat mulki sifatida davlat ro‘yxatidan o‘tkazish to‘g‘risida”gi 509-10-0-Q/24-sonli qarori ijrosni ta’minlash maqsadida,Yer kodeksining 36-moddasi, “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi qonunning 10-, 25-moddalariga asosan, **qaror qilaman**:

1. Toshkent viloyati hokimining 2024 yil 15 iyuldagi “Toshkent tumani hududidagi bo‘sh turgan yer maydonini davlat mulki sifatida davlat ro‘yxatidan o‘tkazish to‘g‘risida”gi 509-10-0-Q/24-sonli qarori ma’lumot va ijro uchun qabul qilinsin.
2. Tuman hokimining o‘rinbosari (S.Mirsagatov) qarorda keltirilgan 4,70 gektar yer maydonini davlat mulki sifatida davlat ro‘yxatidan o‘tkazish maqsadida, belgilangan tartibda Davlat kadastrlari palatasi viloyat boshqarmasiga buyurtma bersin.
3. Davlat kadastrlari palatasi tuman filiali (O.Xoldorov) tuman hokimligining buyurtmasiga asosan, bo‘sh turgan 4,70 gektar yer maydonini davlat mulki sifatida davlat ro‘yxatidan o‘tkazsin hamda kadastr hujjatlarini rasmiylashtirsin.
4. Mazkur qaror ijrosini nazorat qilish tuman hokimi o‘rinbosari S.Mirsagatov zimmasiga yuklatilsin.

Tuman hokimi v.v.b **R.Rixsiyev**